

Date: 5th August-2026

TARJIMA TRANSFORMATSIYALARI: TARJIMADA MUQOBILLIK VA ADEKVATLIK

Shomurotova Hilola Axmadjon qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: hilola.shomuratova@urdu.uz

<https://orcid.org/0009-0001-9979-2524>

Annotatsiya: Ushbu maqola tarjima nazariyasi va amaliyotida markaziy o‘rinni egallagan ikki tushuncha: tarjima transformatsiyalari hamda adekvatlik masalalarining o‘zaro nisbatini ochib beradi. Tadqiqot doirasida V.N.Komissarov, L.S.Barxudarov va J.Ketford kabi olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilinadi. Jumladan, leksik, grammatik va leksik-grammatik transformatsiyalarning tasnifi takomillashtirilib, tarjima sifatini baholashda muqobillik va adekvatlik talablarining amaliy ahamiyati asoslanadi. Tarjimada adekvatlik va ekvivalentlik tushunchalarining tasnifi va ularning tarjimadagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Maqola xulosasida tarjima transformatsiyalarini tanlash mezonlari va ularning tarjima sifatini oshirish borasidagi amaliy ahamiyati umimlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: tarjima transformatsiyalari, muqobillik, ekvivalentlik, adekvatlik, leksik transformatsiya, grammatik transformatsiya, transpozitsiya, tarjima strategiyasi

Abstract: This article reveals the interrelationship between two concepts that occupy a central place in translation theory and practice: translation transformations and the issue of adequacy. Within the scope of the research, the theoretical views of scholars such as V.N. Komissarov, L.S. Barkhudarov, and J. Catford are subjected to comparative analysis. In particular, the classification of lexical, grammatical, and lexical-grammatical transformations is improved, and the practical significance of the requirements for equivalence and adequacy in assessing translation quality is substantiated. The classification of the concepts of adequacy and equivalence in translation and their significance in translation are demonstrated. In the conclusion of the article, the criteria for selecting translation transformations and their practical significance in improving translation quality are summarized.

Key words: translation transformations, equivalence, adequacy, lexical transformation, grammatical transformation, transposition, translation strategy

1. Kirish (Introduction)

Globallashtirish sharoitida xalqaro muloqot, ilmiy-texnik hamkorlik va badiiy adabiyot almashinuvining kengayishi tarjima faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Tarjimon nafaqat ikki til tizimi o‘rtasidagi farqlarni, balki ikki madaniyat, ikki dunyoqarash o‘rtasidagi nomuvofiqliklarni ham bartaraf etishi lozim. Aynan shu nuqtada tarjima transformatsiyalari nazariyasi amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki so‘zma-so‘z tarjima ko‘pincha manba matnning mazmuniy va pragmatik yukini to‘liq yetkazib bera olmaydi. Tarjimashunoslik fanida “muqobillik” (ekvivalentlik) va “adekvatlik”



Date: 5th August-2026

tushunchalari eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar hisoblanadi. Komissarov, Barxudarov va Ketford kabi olimlar ularni o'zaro bog'liq, ammo alohida darajalarda namoyon bo'ladigan hodisalar sifatida ko'rsa, Retsker, Shveytser kabi olimlar ularni deyarli sinonim tushunchalar sifatida talqin qiladi. Ushbu munozaraning murakkabligi transformatsiyalar nazariyasini yanada chuqur o'rganishni taqozo etadi, zero aynan transformatsiyalar vositasida tarjimon muqobillik va adekvatlikka erishadi.

Tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi: birinchidan, til tizimlari o'rtasidagi strukturaviy farqlar doimiy ravishda transformatsion yechimlarni talab qiladi; ikkinchidan, zamonaviy tarjimashunoslikda transformatsiyalar tasnifi borasida yagona yondashuv mavjud emas; uchinchidan, muqobillik va adekvatlik talablarining amaliy tarjima tahlilida qo'llanilishi metodologik jihatdan yanada aniqlashtirishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi tarjima transformatsiyalarining lingvistik tabiatini ochib berish, ularning muqobillik va adekvatlikka erishishdagi funksional rolini aniqlash hamda amaliy tarjima jarayonida transformatsiyalarni tanlash mezonlarini ishlab chiqishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: tarjima transformatsiyalari va muqobillik/adekvatlik tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish; transformatsiyalarning mavjud tasniflarini qiyoslash va takomillashtirilgan modelini taklif etish; badiiy va publitsistik matnlardan olingan misollar asosida transformatsiyalarning amaliy vazifasini ko'rsatish; muqobillik va adekvatlik darajalarini baholash mezonlarini aniqlashtirish. Qo'shish va tushirib qoldirish transformatsiyalari qo'shish transformatsiyasi matn qabul qiluvchilar uchun kontekstni oydinlashtirish zarurligida yuzaga keladi.[13]

2. Tadqiqot materiallari va metodlari (Materials and Methods)

Tadqiqot uchun material sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy matnlar va ularning tarjimalaridan olingan parchalar tanlandi. Materiallar tanlovida matnning janr xilma-xilligi, leksik-grammatik murakkabligi va madaniy-pragmatik yuki inobatga olindi, bu esa transformatsiyalarning turli kontekstlardagi namoyon bo'lishini kuzatish imkonini berdi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi:

- a) tavsifiy-tahliliy metod — tarjima transformatsiyalari turlarini aniqlash va tavsiflash uchun;
- b) qiyosiy-tipologik metod — manba va tarjima tilidagi til birliklarining strukturaviy va semantik farqlarini aniqlash uchun;
- v) komponent tahlili metodi — leksik birliklarning semantik tarkibini aniqlab, transformatsiya zarurligini asoslash uchun;
- g) statistik-miqdoriy tahlil elementlari — transformatsiya turlarining matnlarda uchrash chastotasini aniqlash uchun;
- d) tarjima tahlili — muqobillik va adekvatlik darajasini baholash uchun.

Nazariy asos sifatida J.Ketfordning shift nazariyasi, L.S.Barxudarovning to'rt turli transformatsiya modeli (o'rinlashtirish, almashtirish, qo'shilish, tushirib qoldirilish), Ya.I.Retskerning leksik transformatsiyalar nazariyasi hamda V.N.Komissarovning ekvivalentlik darajalari konsepsiyasi olindi.



Natijalar (Results)

3.1. Muqobillik va adekvatlik: tushunchalarning nisbati

Tahlil shuni ko'rsatadiki, "muqobillik" va "adekvatlik" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi, ammo mezonlari jihatidan farqlanuvchi kategoriyalardir. Muqobillik manba matn va tarjima matni o'rtasidagi mazmuniy, semantik va strukturaviy yaqinlik darajasini anglatadi hamda ko'proq til birliklari darajasida, ya'ni so'z, jumla, matn o'lchanadi. Adekvatlik esa kengroq tushuncha bo'lib, tarjimaning kommunikativ vazifani, pragmatik ta'sirni va muloqot maqsadini to'liq qay darajada saqlaganini anglatadi. Boshqacha aytganda, muqobillik ko'proq "nima tarjima qilindi" savoliga, adekvatlik esa "tarjima qanday vazifani bajardi" savoliga javob beradi. V.N.Komissarov taklif etgan besh darajali ekvivalentlik modeli bunda muloqot maqsadi darajasi, vaziyatni tavsiflash darajasi, bayonot usuli darajasi, sintaktik ma'nolar darajasi va leksik-semantik moslik darajasi shuni ko'rsatadiki, to'liq muqobillik barcha darajalarda moslik mavjud bo'lgandagina yuzaga keladi, ammo adekvat tarjima uchun bunga zarurat yo'q bo'lib, ba'zan yuqori darajadagi ekvivalentlikdan voz kechib, kommunikativ maqsadga erishish mumkin.

3.2. Tarjima transformatsiyalarining tasnifi

Tadqiqot natijasida transformatsiyalarning quyidagi umumlashgan tasnifi taklif etildi:

Transformatsiya turi	Ichki ko'rinishlari	Asosiy vazifasi
Leksik transformatsiyalar	transliteratsiya, transkripsiya, kalkalash, leksik-semantik almashtirishlar (generalizatsiya, konkretlashtirish, modulyatsiya)	so'z ma'nosining til tizimidagi mosligini ta'minlash
Grammatik transformatsiyalar	sintaktik o'rinashtirish, gap bo'laklarini almashtirish, gapni bo'lish va birlashtirish, grammatik almashtirishlar	til tizimlarining sintaktik asimmetriyasini bartaraf etish
Leksik-grammatik transformatsiyalar	antonimik tarjima, eksplikatsiya (tavsifiy tarjima), kompensatsiya	mazmuniy va pragmatik moslik uchun kompleks yondashuv
Stilistik transformatsiyalar	uslubiy moslashtirish, ekspressivlikni kuchaytirish/susaytirish	matnning uslubiy-estetik vazifasini saqlash

Yuqoridagi tasnifdan ko'rinib turibdiki, transformatsiyalar alohida-alohida emas, balki ko'pincha kompleks shaklda bir jumla tarjimasida bir nechta transformatsiya turining uyg'unlashgan holda qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi.

3.3. Transformatsiyalarning muqobillik va adekvatlikka erishishdagi rolini misollarda ko'rish

Tadqiqot davomida to'plangan misollar transformatsiyalarning zaruriy holatlarini aniq ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilidagi murakkab sifatdosh shaklidagi tuzilmalar o'zbek tiliga tarjima qilinganda ko'pincha ergash gapli qo'shma gap shakliga o'zgartiriladi, ya'ni grammatik transformatsiya gapni qayta qurish orqali, bunda manba matnning mazmuniy to'liqligi saqlangan holda, tarjima tilining tabiiy sintaktik me'yorlariga moslashtiriladi.



Date: 5th August-2026

Xuddi shunday, madaniy xos leksika hamda realiyalar tarjimasida transliteratsiya bilan birga izohlovchi tarjima (eksplikatsiya) qo'llanilishi muqobillikdan ko'ra adekvatlikka ustuvorlik berilganini ko'rsatadi, chunki o'quvchi uchun tushunarli bo'lish maqsadi leksik shaklning aynan saqlanishidan ustun qo'yiladi.

Modulyatsiya usulining qo'llanilishi, ayniqsa, idiomatik va metaforik ifodalar tarjimasida yuqori chastotada kuzatildi. Bunda manba tildagi obrazli ifoda tarjima tilida fikrlash nuqtayi nazarini o'zgartirish orqali masalan, sabab-natija munosabatini natija-sabab tarzida qayta qurish beriladi, bu esa matnning pragmatik ta'sirini saqlashga xizmat qiladi.

4. Muhokama (Discussion)

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, tarjima transformatsiyalari mexanik almashtirish emas, balki tarjimonning ongli lingvistik-kognitiv qarori bo'lib, u muqobillik va adekvatlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu borada J.Ketfordning nazariyasi bilan L.S.Barxudarovning to'rt turli transformatsiya modeli o'rtasida terminologik farq mavjud bo'lsada, mohiyatan ular bir xil hodisani til tizimlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etish jarayonini tasvirlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida aniqlangan muhim jihat shundan iboratki, muqobillik darajasining pasayishi har doim ham adekvatlikning buzilishini anglatmaydi. Aksincha, ko'p hollarda, ayniqsa badiiy tarjimada, tarjimon ongli ravishda muqobillikdan voz kechib, mazmuniy va pragmatik adekvatlikka e'tibor qaratadi. Bu holat "erkin tarjima" va "erkinlikka asoslangan transformatsiya" tushunchalarini farqlash zaruratini ko'rsatadi: birinchisi ko'pincha me'yordan chetlanish sifatida baholansa, ikkinchisi ilmiy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan strategik qarordir.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, amaliy tarjima o'qitish jarayonida transformatsiyalar nazariyasini alohida modul sifatida kiritish zarurligini ko'rsatadi, chunki transformatsiyalarni ongli qo'llash qobiliyati tarjimon kompetensiyasining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Biroq tadqiqotning cheklangan jihatlari ham mavjud: tahlil uchun tanlangan matnlar hajmi va janr doirasi kengaytirilsa, transformatsiyalarning statistik taqsimoti borasida yanada ishonchli xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi.

5. Xulosa (Conclusion)

O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Tarjima transformatsiyalari til tizimlari o'rtasidagi strukturaviy, semantik va pragmatik nomuvofiqliklarni bartaraf etishning muhim vositasi bo'lib, matn mazmunini saqlagan holda muqobillik va adekvatlikka erishishni ta'minlovchi lingvistik mexanizm hisoblanadi.

2) Muqobillik va adekvatlik o'zaro bog'liq, ammo mustaqil tushunchalar bo'lib, muqobillik ko'proq til birliklari darajasidagi moslik bilan, adekvatlik esa kommunikativ vazifaning to'liq saqlanishi bilan belgilanadi.

3) Transformatsiyalarning to'rt asosiy turi leksik, grammatik, leksik-grammatik va stilistik amaliyotda ko'pincha uyg'unlashgan holda, bir-birini to'ldiruvchi tarzda qo'llaniladi.



Date: 5th August-2026

4) Tarjimon uchun transformatsiyalarni tanlash mezonlari sifatida matnning kommunikativ maqsadi, janr xususiyati va mo'ljallangan o'quvchi omili yetakchi ahamiyatga ega.

5) Tarjima sifatini baholashda faqat shakliy muqobilikka emas, balki adekvatlik talablariga ham tayangan murakkab yondashuv qo'llanilishi lozim.

Tadqiqot natijalari tarjima nazariyasi, amaliyoti va o'qitish metodikasi uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, kelgusi tadqiqotlarda transformatsiyalarning korpus asosidagi statistik tahlili, shuningdek, mashina tarjimasi tizimlarida transformatsion modellarning qo'llanilishi masalalari o'rganilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. 2.Комиссаров, В. Н. "Теория перевода (лингвистические аспекты)." — М.: Высшая школа, 1990. — 253 с.
2. Рецкер, Я. И. "Теория перевода и переводческая практика." — М.: Международные отношения, 1974. — 216 с.
3. Швейцер, А. Д. "Теория перевода: статус, проблемы, аспекты." — М.: Наука, 1988. — 215 с.
4. Catford, J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. — London: Oxford University Press, 1965. — 103 p.
5. Vinay, J.-P., Darbelnet, J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. — Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins, 1995 (originally published 1958). — 359 p.
6. Nida, E.A. Toward a Science of Translating. — Leiden: E.J. Brill, 1964. — 331 p.
7. Munday, J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. — 4th ed. — London/New York: Routledge, 2016. — 384 p.
8. Newmark, P. Approaches to Translation. — Oxford: Pergamon Press, 1981. — 200 p.
9. G'afurova, M. Tarjima nazariyasi va amaliyoti masalalari. — Toshkent: Fan, 2019. — 184 b.
10. G'ofurov, I., Mo'minov, O., Qambarov, N. Tarjima nazariyasi: oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. — Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012. — 216 b
11. Ochilov, E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. — Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2014. — 140 b.
12. Sevara Allayarovna, Y. (2026). GRAMMATIK VA SINTAKTIK VOSITALAR TARJIMASIDAGI TRANSFORMATSIYALAR (O'TKIR HOSHI MOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARI ASOSIDA). *Advances in Science and Humanities*, 2(05), 38-46. <https://doi.org/10.70728/human.v02.i05.011>

